AL-ARABIYA VA AL-JAZIRA TELETARMOQLARIDA ABDULFATTOH AS-SISI DAVRIDA MISR TASHQI SIYOSATINING YORITILISHI (2014-2024)

Alimxodjayeva Go‘zal Baxodirovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Misr Arab Respublikasi prezidenti Abdulfattoh as-Sisining 2014-2024-yillar davomida olib borgan tashqi siyosatining “Al-Arabiya” (Saudiya Arabistoni) va “Al-Jazira” (Qatar) teletarmoqlarida yoritilishi qiyosiy tahlil qilinadi. Robert Entmanning “media framing” nazariyasi asosida olib borilgan tadqiqot natijasida ikki telekanalning ayni bir voqeani turli ramkalar orqali talqin etishida keskin farqlar mavjudligi aniqlandi. “Al-Arabiya” Abdulfattoh as-Sisi tashqi siyosatini ijobiy va strategik muvaffaqiyat sifatida baholagan bo‘lsa, “Al-Jazira” uni tanqidiy nuqtai nazardan, moliyaviy-siyosiy qaramlik ramkasida yoritgan. Ushbu farqlar Saudiya Arabistoni va Qatar o‘rtasidagi mintaqaviy raqobatni aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: Abdulfattoh as-Sisi, Misr tashqi siyosati, media framing, “Al-Arabiya”, “Al-Jazira”, geosiyosiy raqobat, ko‘p vektorli diplomatiya.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda ommaviy axborot vositalari, xususan, xalqaro teletarmoqlar davlatlarning tashqi siyosatini shakllantirish va xalqaro maydonda uning obrazini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Arab dunyosida eng nufuzli ikki teletarmoq Saudiya Arabistoniga qarashli “Al-Arabiya” va Qatar tomonidan moliyalashtiriladigan “Al-Jazira” bir xil voqealarni turli nuqtai nazardan yoritish orqali mintaqaviy geosiyosiy raqobatni aks ettiradi. Bu ikki kanal o‘rtasidagi

farqlar nafaqat tahririy siyosat bilan, balki ularning homiylari Saudiya Arabistoni va Qatar o‘rtasidagi chuqur raqobat bilan ham bog‘liqdir[1].

“Al-Arabiya” asosan status-kvo va Fors ko‘rfazi monarxiyalarining manfaatlarini himoya qilishga moyil bo‘lsa, “Al-Jazira” Arab bahoridan keyin muxolif harakatlar jumladan, “Musulmon birodarlar”ni kuchliroq yoritgan va ko‘pincha hukumatlarning harakatlarini tanqidiy baholagan. 2013-yilgi harbiy to‘ntarishdan keyin Misr va Qatar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi “Al-Jazira” yoritishida ham yaqqol namoyon bo‘ldi[2].

Globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalari faqat voqealarni yorituvchi vosita bo‘lib qolmay, balki ularni talqin etuvchi va shakllantiruvchi kuchga aylangan. Bu jarayonda “media framing” nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Robert Entman framingni “voqeani muayyan muammo sifatida belgilash, uning sabablarini izohlash, axloqiy baho berish va muayyan yechimni taklif etish” deb ta’riflagan[3].

Ushbu tadqiqotda aynan Entmanning framing modeli asos qilib olinadi. Aynan shu model orqali “Al-Arabiya” va “Al-Jazira” telekanallarining bir xil voqealarni turli ramkalar orqali qanday talqin etishini tahlil qilishimiz mumkin.

Arab dunyosida “Al-Arabiya” (Saudiya Arabistoni) va “Al-Jazira” (Qatar) uzoq vaqtdan beri asosiy raqobatchilar sifatida tan olingan. Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu ikki kanal o‘z homiy davlatlarining geosiyosiy manfaatlarini aks ettirib keladi.

“Al-Arabiya” va “Al-Jazira” jurnalistlarining Misr prezidenti Abdulfattoh as-Sisi haqida bildirgan fikr-mulohazalari, siyosiy tahlillari va uning tashqi siyosatiga berilgan baholarida bir qator o‘xshashlik jihatlari ham kuzatilgan.

[1] Powers, S., & el-Nawawy, M. (2020). Al-Jazeera, Al-Arabiya, and the news media politics of the Arab world: The case of Egypt. Media, War & Conflict, 13(4), 425–442. // URL: https://doi.org/10.1177/1742766520921880
[2] Malsin, J. (2017, August 21). In the eye of the storm: Can Al Jazeera survive the Gulf crisis? TIME. // URL: https://time.com/4896791/al-jazeera-qatar-middle-east-saudi-arabia-crisis/
[3] Entman, R. M. (1993). Framing: Toward clarification of a fractured paradigm. Journal of Communication, 43(4), 51–58. // URL: https://doi.org/10.1111/j.1460-2466.1993.tb01304.x

“Al-Arabiya” muxbiri Hisham Melhem o‘zining “AQSh-Misr munosabatlari: pragmatik ittifoq” nomli maqolasida “As-Sisi va AQSh o‘rtasidagi munosabatlar majburiy nikohga o‘xshaydi: ikkala tomon ham bir-biridan mamnun emas, lekin ajralish mumkin emas. Misr AQSh harbiy yordamiga muhtoj, AQSh esa Misrning mintaqaviy barqarorlikdagi roliga muhtoj”, deb yozgan[4].

“Al-Jazira” muxbiri Shihab al-Qazzaz ham shunga o‘xshash fikrlarni ilgari surgan. Uning “AQSh-Misr munosabatlari: murakkab ittifoq” maqolasida As-Sisi Obama ma’muriyati bilan murakkab munosabatlarga ega bo‘lgan, chunki 2013-yilgi voqealar AQSh tomonidan “harbiy to‘ntarish” sifatida baholangan. Keyinchalik esa u Tramp ma’muriyati bilan yaqinlashdi. Muallif As-Sisi AQSh bilan munosabatlarda pragmatik va manfaatparast yondashuvni qo‘llashini qayd etadi[5].

Ikkala muxbir ham o‘z tahlillarida bir xil pragmatik (realpolitik) yondashuvdan foydalangan. Ular demokratik qadriyatlar va inson huquqlari masalasini ikkinchi darajaga surib, asosiy e’tiborni strategik manfaatlar hamda o‘zaro siyosiy ehtiyojlarga qaratgan. Shu nuqtai nazardan, AQSh-Misr munosabatlari “ideal emas, lekin zarur” tarzida baholangan.

Bu holat Robert Entman tomonidan ilgari surilgan framing nazariyasiga to‘liq mos keladi. Nazariyaga ko‘ra, bir xil voqea - ushbu holatda AQSh-Misr munosabatlari -media tomonidan ma’lum jihatlarni tanlab ajratish va ularni kuchaytirish orqali muayyan ramkada talqin qilinadi. Natijada, turli mualliflar tomonidan yoritilgan bo‘lsa-da, mazmunan bir xil realpolitik ramka shakllangan.

“Al-Arabiya” iqtisodiy tahlilchisi Muhammad al-Shayx o‘zining “Misr va Fors ko‘rfazi davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik: strategik muvaffaqiyat” nomli maqolasida Abdulfattoh as-Sisining mintaqaviy siyosatini ijobiy baholaydi. Uning ta’kidlashicha, Sisi Saudiya Arabistoni va BAA bilan ittifoqni muvaffaqiyatli

[4] US-Egypt relations: A pragmatic alliance. (2021, March 15). Al Arabiya English. //URL:https://english.alarabiya.net/views/news/middle-east/2021/03/15/US-Egypt-relations-A-pragmatic-alliance
[5] Al Jazeera. (2015, March 15). US-Egypt relations: A complicated alliance. Al Jazeera. // URL https://www.aljazeera.com/news/2015/3/15/us-egypt-relations-a-complicated-alliance

shakllantirdi, chunki u ushbu davlatlarning xavfsizlik bilan bog‘liq tashvishlarini chuqur anglay oldi. Bu ittifoq tengsiz bo‘lsa-da, o‘zaro manfaatli hisoblanadi. Saudiya Arabistoni va BAA Misrga 50 milliard dollardan ortiq yordam ko‘rsatgan. Shu bilan birga, Sisi o‘zining mustaqil tashqi siyosatini yuritishda davom etmoqda.[6]

“Al-Jazira” iqtisodiy tahlilchisi Nader Ennesser esa aksincha “Misr chuqur qarzda va Fors ko‘rfazi monarxiyalari bilan yaqin ittifoqda” maqolasida esa “As-Sisi 50 milliard dollar evaziga nimadan voz kechdi? Misrning mustaqil tashqi siyosatidan. U Saudiya Arabistoni va BAAning mintaqaviy siyosatiga bo‘ysundi, Yaman urushini qo‘llab-quvvatlash, Liviyada Xaftarni tan olish, Qatar blokadasiga qo‘shilish. Bu haqiqiy ittifoq emas, balki qaramlik (vassallik) hisoblanadi”.[7]

Muhammad al-Shayx va Nader Ennesser ham bir xil faktlardan “50 milliard dollar yordam, Saudiya-BAA bilan yaqin munosabatlar, Yaman, Liviya va Qatar masalalari” foydalangan holda butunlay teskari ramka yaratgan. Bu holat Entman nazariyasining klassik namunasidir, bir xil voqelikning turli jihatlarini tanlab, ularni turlicha talqin qilish va baholash orqali auditoriyada keskin farqli fikr shakllantiriladi. “Al-Arabiya” ijobiy-strategik ramkadan, “Al-Jazira” esa salbiy-qaramlik ramkasidan foydalangan. Bu yondashuv media tashkilotlarining mintaqaviy siyosiy yo‘nalishlariga ham mos keladi.

“Al-Arabiya” va “Al-Jazira” telekanallari Misrning Efiopiya bilan bog‘liq asosiy muammosi GERD “Efiopiya Buyuk Uyg‘onish to‘g‘oni” masalasidagi siyosatini turli ramkalar orqali yoritgan. Yani bir xil geosiyosiy muammoni qarama-qarshi talqinlarda taqdim etgan.

“Al-Arabiya” telekanali ushbu masalani asosan milliy xavfsizlik va suv suverenitetini himoya qilish ramkasida taqdim etadi. Ular Prezident Abdulfattoh as-

[6] Egypt-Gulf economic partnership: A strategic success (2023, April 10). Al Arabiya English. // URL:https://english.alarabiya.net/views/news/middle-east/2023/04/10/Egypt-Gulf-economic-partnership-A-strategic-succes

[7] Al Jazeera. (2016, April 12). Sisi’s Egypt: Deep in debt and deep in bed with Gulf monarchies. // URL:https://www.aljazeera.com/economy/2016/4/12/sisis-egypt-deep-in-debt-and-deep-in-bed-with-gulf-monarchies

Sisining pozitsiyasini faol qo‘llab-quvvatlab, Efiopiya tomonidan to‘g‘onni to‘ldirish jarayonlarini “Misr uchun strategik tahdid” hamda “xalqaro huquq normalarining buzilishi” sifatida talqin qiladi[8].

“Al-Jazira” esa aksincha, ushbu masalani mintaqaviy raqobat va Misrning diplomatik muvaffaqiyatsizligi ramkasida yoritadi. 2021-yil 7-apreldagi materialida “Al-Jazira” as-Sisining “barcha variantlar ochiq” degan bayonotini keltirib, uni keskinlashuvga olib kelishi mumkin bo‘lgan siyosiy pozitsiya sifatida talqin qiladi. Shuningdek, Al-Jazira Efiopiyaning rivojlanish huquqini ham alohida ta’kidlab, Misr pozitsiyasini “an’anaviy suv ustunligini saqlab qolishga urinish” sifatida baholaydi[9].

“Al-Arabiya” va “Al-Jazira” telekanallari Abdulfattoh as-Sisi tashqi siyosatini nima uchun turlicha yoritadi?

“Al-Arabiya” va “Al-Jazira” teletarmoqlari bir xil voqealarni turli nuqtai nazardan yoritishining asosiy sababi ikkala kanalning homiy davlatlari o‘rtasidagi geosiyosiy raqobatdir. “Al-Arabiya” Saudiya Arabistoniga qarashli bo‘lib, Saudiya Arabistoni va Fors ko‘rfazi monarxiyalarining manfaatlarini himoya qiladi[10].

Asosiy farqning eng muhim sababi 2013-yilda Misrda sodir bo‘lgan harbiy to‘ntarishdir. Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari Abdulfattoh as-Sisini qo‘llab-quvvatlagan va unga katta moliyaviy yordam ko‘rsatgan. Qatar esa Muhammad Mursiy va “Musulmon birodarlar” harakatini qo‘llab-quvvatlagan. Shu sababli “Al-Arabiya” Sisi tashqi siyosatini ijobiy va strategik muvaffaqiyat sifatida yoritadi, “Al-Jazira” esa uni tanqidiy nuqtai nazardan qaramlik va mustaqillikni yo‘qotish ramkasida baholaydi[11].

[8]Al Arabiya English. (2021, March 6). Sisi warns Ethiopia against continuing to fill Nile dam during visit to Sudan. // URL: https://english.alarabiya.net/News/middle-east/2021/03/06/Sisi-warns-Ethiopia-against-continuing-to-fill-Nile-Dam-during-visit-to-Sudan

[9] Al Jazeera. (2021, April 7). Egypt warns Ethiopia of potential for conflict over Blue Nile dam. // URL: https://www.aljazeera.com/news/2021/4/7/egypt-warns-ethiopia-of-potential-for-conflict-over-blue-nile-dam

[10] Council on Foreign Relations. (2017). How Al Jazeera amplifies Qatar’s clout. // URL: https://www.cfr.org/backgrounders/how-al-jazeera-amplifies-qatars-clout

[11]Al Ahram Online. (2013). Arab news TV rivals Al-Arabiya, Al-Jazeera draw up Egypt battle lines. // URL: https://english.ahram.org.eg/NewsContent/2/8/76974/World/Region/Arab-news-TV-rivals-AlArabiya

Bu farqlar nafaqat siyosat bilan, balki Saudiya Arabistoni va Qatar o‘rtasidagi mintaqaviy yetakchilik uchun olib borilayotgan raqobat bilan ham bog‘liqdir. Ushbu holat Robert Entman framing nazariyasiga to‘liq mos keladi. Bir xil voqea turli homiy davlatlar manfaatlariga qarab turli ramkalarda talqin qilinadi. Bu esa Misr tashqi siyosatini tahlil qilishda bir tomonlama axborot manbalariga tayanib qolmasdan, turli nuqtai nazarlarni qiyosiy o‘rganish va tanqidiy yondashuvni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Powers, S., & el-Nawawy, M. (2020). Al-Jazeera, Al-Arabiya, and the news media politics of the Arab world: The case of Egypt. Media, War & Conflict, 13(4), 425–442. // URL: https://doi.org/10.1177/1742766520921880

2.Malsin, J. (2017, August 21). In the eye of the storm: Can Al Jazeera survive the Gulf crisis? TIME. // URL: https://time.com/4896791/al-jazeera-qatar-middle-east-saudi-arabia-crisis/

3.Entman, R. M. (1993). Framing: Toward clarification of a fractured paradigm. Journal of Communication, 43(4), 51–58. // URL: https://doi.org/10.1111/j.1460-2466.1993.tb01304.x

4.US-Egypt relations: A pragmatic alliance. (2021, March 15). Al Arabiya English.//URL:https://english.alarabiya.net/views/news/middle-east/2021/03/15/US-Egypt-relations-A-pragmatic-alliance

5.Al Jazeera. (2015, March 15). US-Egypt relations: A complicated alliance. Al Jazeera. // URL https://www.aljazeera.com/news/2015/3/15/us-egypt-relations-a-complicated-alliance

6.Egypt-Gulf economic partnership: A strategic success (2023, April 10). Al Arabiya English. // URL:https://english.alarabiya.net/views/news/middle-east/2023/04/10/Egypt-Gulf-economic-partnership-A-strategic-succes

7.Al Jazeera. (2016, April 12). Sisi's Egypt: Deep in debt and deep in bed withGulfmonarchies.//URL:https://www.aljazeera.com/economy/2016/4/12/sisis-egypt-deep-in-debt-and-deep-in-bed-with-gulf-monarchies

8. Al Arabiya English. (2021, March 6). Sisi warns Ethiopia against continuing to fill Nile dam during visit to Sudan. // URL: https://english.alarabiya.net/News/middle-east/2021/03/06/Sisi-warns-Ethiopia-against-continuing-to-fill-Nile-Dam-during-visit-to-Sudan

9.Al Jazeera. (2021, April 7). Egypt warns Ethiopia of potential for conflict over Blue Nile dam.// URL: https://www.aljazeera.com/news/2021/4/7/egypt-warns-ethiopia-of-potential-for-conflict-over-blue-nile-dam

10. Council on Foreign Relations. (2017). How Al Jazeera amplifies Qatar's clout. // URL: https://www.cfr.org/backgrounders/how-al-jazeera-amplifies-qatars-clout

11. Al Ahram Online. (2013). Arab news TV rivals Al-Arabiya, Al-Jazeera draw up Egypt battle lines. // URL: https://english.ahram.org.eg/NewsContent/2/8/76974/World/Region/Arab-news-TV-rivals-AlArabiya